



HOZIRGI DAVRDA EKOLOGIK TARBIYANING AHAMIYATI

Xudoyberdiyev Anvar Tuxtamishovich

*Havo Hujumidan Mudofaa Qo'shinlari va Harbiy Havo Kuchlari Qo'mondonligi
Moddiy Texnika Ta'minot Boshqarmasi Davlat Texnik Nazorati va Texnika Xavfsizligi
Bo'limi Ekologiya nazorati bo'yicha yetakchi inspektori*

Annontatsiya: *Ushbu maqolada tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarda ekologik tarbiya va odob-ahloqni rivojlantirishning muhimligi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Biosfera, ekologiya, omillar, atrof-muhit, interfaol, muhit, foydalanish, ta'lim.*

ВАЖНОСТЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОЕ ВРЕМЯ

Худойбердиев Анвар Тухтамышович

Войска ПВО и Командование ВВС, ведущий инспектор экологическому контролю Управления государственного технического контроля и технической безопасности Управления материально-технического снабжения.

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение экологического воспитания и нравственного воспитания учащихся в преподавании естественных наук.*

Ключевые слова: *Биосфера, экология, факторы, среда, интерактив, среда, использование, образование.*

IMPORTANCE OF ECOLOGICAL EDUCATION IN THE PRESENT TIME


Khudaberdiyev Anvar Tukhtamishovich

Air Defense Forces and Air Force Command, product inspector for ecological control of the Department of State Technical Control and Technical Equipment of the Material Technical Supply Department.

Annotation: *This article discusses the importance of environmental education and development of students in teaching natural sciences.*

Key words: *Biosphere, ecology, reserve, environment, interactive, environment, transfer education.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar stratagiyasi" ayniqsa, ekologiya va atrof





muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlarining faoliyatini yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2017-yil 21-apreldagi PF-5024-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qayta tashkil etildi.

Keyingi yillarda sanoat chiqindilari biosferaga qanday ta'sir ko'rsatayotganligi, buning ta'sirida yerning jonli qobig'ida qanday o'zgarishlar sodir bo'lish muammolari butun dunyodagi ekolog olimlar e'tiborini jalb qilmoqda. Agarda sanoat ishlab chiqarishida tubdan o'zgarish qilinmasa hozirgi mavjud texnologik jarayonlarni qayta takomillashtirilsa xam planetadagi biosferaning ifloslanishi davom yetaveradi. Bunday bosimga tabiat tizimidagi o'zini-o'zi tozalash holati bardosh beroladi. Hozirgi davrda ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda sanoat chiqindisiz ishlaydigan texnologiyaga katta e'tibor berilgan, yevropa davlatlaridagi ko'pchilik ishlab chiqarishlarda bu usul ishlatiladi. Shuningdek jarayon respublikamizdagi ayrim korxonalarda ham qo'llanilmoqda. Keyingi 2-3 yil ichida ayniqsa mamlakatimiz mustaqil bo'lgach og'ir sanoatni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Bular da ilmiy jihatdan asoslangan chiqindisiz ishlaydigan texnologiya keng miqyosda joriy etilmoqda. Bu yerda shu narsani alohida qayd qilish kerakki chiqindisiz ishlab chiqarish jarayonning o'zi tabiatdan olingandir, chunki bir organizmning faoliyatida foydalaniladi va yirik biosferada moddalarning biologik aylanishida utilizatsiya qilinadi, natijada tabiatga zarar beradigan zaharli moddalar tashlanmaydi. Biosferada hayotning taqsimlanishi nihoyatda murakkab va xilma-xildir.

Ekologik ta'lim va tarbiyani o'qitishda innovatsion yondashuvlar ya'ni rivojlangan davlatlarda keng tadbqiq etilayotgan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'lim tizimi yaratilmoqda. O'quv jarayoni sifatini oshirishga nisbatan qo'yilayotgan asosiy talablardan biri zamonaviy informatsion texnologiyalarga asoslangan pedagogik texnologiyalarni tadbqiq etishni takomillashtirish hisoblanadi. O'zbekistonda biologiya, geografiya, kimyo fani rivoji va kelajagi haqida o'quvchilarda bilimlarni shakllantirish ham muhim dolzarb masala hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida ekologik tushuncha, ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish ekologik tarbiyani, odob-ahloqni rivojlanishiga olib keladi, bu esa ekologik muammolarni oldini oladi.

Yoshlarimizi bolaligidanoq tabiatga bo'lgan mehr-muhabbatini, zavqini oshirish kerak. Buning uchun ularda tabiatning foydali hayvonot va o'simlik dunyosi haqidagi bilimlarini mustahkamlash zarurdir.

Hozirgi davrda ekologik ta'lim va tarbiya tushunchalari eng muhim so'zlarga aylanib bormoqda. O'quvchilarda bu tushunchalarni ta'lim muassasalarida turli tadbqirlar, o'yinlar, musobaqalar, aksiyalar tashkillash bilan rivojlantirish va





mustahkamlash mumkin. Har bir inson tevarak-atrofga, tabiatga o'z uyidek qarasa atof-muhit, atmosfera, gidrosfera va litosferaning ifloslanishi kelib chiqmaydi.

Har bir ta'lim muassasasidagi pedagogning o'z ilmiy qarashlari dars o'tish usullari bor bo'lib, bu usullar orqali o'quvchi yoshlarimizga har bir dars mashg'ulotlarida ekologik tarbiya berib borishi kerak. Shundagina biz tabiatni kelajak avlodga sof holda qoldira olamiz.

XULOSA

Hozirgi zamon fan-texnikasi yutuklari bilan qurollangan jamiyat o'z faoliyati tufayli tabiatning o'zini-o'zi boshkarish mexanizmiga chuqurroq ta'sir ko'rsatishi natijasida tabiatga nihoyat katta ta'sir ko'rsatmoqda. Buning oqibatida mintaqaning biosferasida kuchli o'zgarishlar hosil bo'lmoqda. Bular tabiat boyliklaridan va uning kuchidan foydalanishning ekstensiv usulidan samarali aqlzakovatga amal qilib foydalanishni talab etadi.

Bu jamiyat tabiat ustidan hukmronlik qilish va uni o'ziga bo'ysindirish kerak, degan g'oyadan voz kechib, u bilan hamkorlarcha teng munosabatlarda harakat qilishi kerak deganidir. Ayrim hollarda jamiyat o'z taraqqiyoti tufayli tabiatdan ustunlik qilishi mumkin. Lekin bu vaqtda birlik va muvozanat buzilmasligi, ijtimoiy va tabiiy jarayonlarni boshqarishda javobgarlik bo'lishi lozim.

N.I. Fedoseyev ilmiy-texnika revalyutsiyasiga e'tibor berib, "keyingi yillarda ekologik muommolar yana ham sezilarli bo'lmoqda. Bu hol jamiyat bilan uni o'rab olgan tabiiy muhitlar o'rtasidagi va insoniyat faoliyatining tabiatga bo'lgan tasirining o'sishi tufayli tarixiy rivojlanish jarayonida sodir bo'lgan qarama-qarshiliklar natijasidir. Bu muommolar ilmiy, texnika inqilobi tufayli global masalaga aylandi. Biz shu narsaga o'rganib qolganmizki, ilmiy texnika inqilobi faqat jamiyatga foyda keltirishi mumkin, ya'ni ijtimoiy progressni hosil qiluvchi kuch, yuqori rivojlangan moddiy bazani va ma'naviy qulayliklarni yaratuvchi omil sifatida ekologik qiyinchiliklarni vujudga keltirib, jamiyat va tabiyat o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning vujudga kelishiga olib keladi".

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi".

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2017-yil 21-apreldagi PF-5024-son farmoni.

3. Xalq ta'limi vazirligining 2016 yil 30 dekabrda "Xalq ta'limi tizimi rahbar va pedagog xodimlarining 2017 yil uchun malaka oshirish rejalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 308-sonli buyrug'i.





4. Xalq ta'limi rahbar va pedagog kadrlari malakasini oshirish kurslari o'quv rejalarining "Mutaxassislik fanlari" bloki tarkibiga kiruvchi modullar bo'yicha namunaviy o'quv- mavzu rejalari va dasturlari. A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI. 2016 yil. MT112- Biologiya fani o'qituvchilari. VII to'plam.

